



## INTERFAOL METODLAR ASOSIDA XXI ASR KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI

**Atayeva Baxrinisa Abduvaxidovna**

**+998972456806**

**Sirdaryo viloyat pedagogika markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim  
metodikalari kafedrası mudiri v.v.b**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada 4 k modeli asosida interfaol metodlardan foydalangan holda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari har bir ko'nikmani shakllantirishga oid interfaol metodlar namunasida ko'rsatilib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, interfaol metodlar, 4K modeli, kritik fikrlash, kreativ fikrlash, kollaboratsiya, kommunikativlik, ko'nikmalar.

## РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ XXI ВЕКА НА ОСНОВЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ

**Аннотация.** В данной статье показаны возможности формирования навыков XXI века с помощью интерактивных методов на основе модели 4к.

**Ключевые слова:** начальное образование, интерактивные методы, модель 4К, критическое мышление, творческое мышление, сотрудничество, коммуникативные навыки.

## OPPORTUNITIES FOR BUILDING 21ST CENTURY SKILLS THROUGH INTERACTIVE METHODS

**Abstract.** This article shows the possibilities of the formation of 21st-century skills with the help of interactive methods based on the 4C model.

**Keywords:** primary education, interactive methods, 4C model, critical thinking, creative thinking, cooperation, communicative skills.



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak”, deya ta’kidlab o‘tgan.

Fan va texnika jadal sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan davrda bolalarning aqliy rivojlanish tezligi ham o’sib bormoqda. Natijada ta’limning umumiy darajasi ham oshayotgani shubhasiz. Biroq nazarimizda boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifasi savodxonlikni jadallashtirish, o‘zlashtirishni tezlashtirishdan iborat bo‘lib qolmasligi kerak. Boshlang‘ich ta’lim aqliy rivojlanishga yordam beruvchi samarali ta’limning interfaol usullarini qo‘llash natijasida bo‘ladi. Aqliy rivojlanishdagi o‘zlashtirishlar esa tafakkurni oliy bosqichiga o‘tishi bilan emas, balki o‘quvchilarning intellektual imkoniyatlarini to‘liq amalga oshirish bilan izohlanadi.

Interfaol metodlardan foydalanishdagi asosiy qonuniyatlar quyidagilardan iborat:

- Pedagogik jarayon o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligi asosida tashkillashtiriladi;
- O‘quvchi mashg‘ulotning faol ishtirokchisiga aylanadi;
- O‘qituvchi mashg‘ulotning bosh “hukmdori” vazifasidan bo’shatiladi;
- O‘qituvchi va o‘quvchi o‘zaro teng huquqli ishtirokchilarga aylanadi;
- Mashg‘ulot jarayoni demokratik tamoyillar asosida olib boriladi;
- Eng muhimi faol metodda aynan o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida pedagogik hamkorlik vujudga keltiriladi.

Interfaol mashg‘ulotda ishtirok etish uchun o‘quvchilarning tayyorgarliklariga o‘ziga xos talablar qo‘yiladi:

- mashg‘ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o‘zlashtirganlik;
- muloqotga tayyorlik;
- o‘zaro hamkorlikda ishlash;
- mustaqil fikrlash;
- o‘z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko‘nikmalari kabilardan iborat.

Interfaol metodlar asosida XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatlarini ko‘rib chiqamiz. Avvalo 4K modeliga asoslangan ko‘nikmalar ta’rifini o‘rganamiz.


Moslashtiring o‘yini asosida topshiriqni bajaramiz.



## Moslashtiramiz



Javobingiz bilan solishtiring.



### Kollaboratsiyaga yo'naltirilgan "Galereya boylab sayohat" metodi

"Galereya bo'ylab sayohat" metodi asosida har bir guruhga kichik "galereya" tashkilqilinadi, ya'ni sinfning 4 joyi mo'ljallanib, filipchatka qog'ozlar yopishtiriladi. Har bir guruh berilgan topshiriq asosida vazifa bajaradilar va qarsakdan so'ng, joylar almashilib, oxirida o'z galereyalariga keladilar va berilgan versiyalarni qabul qilish, qilmaslik guruh ixtiyorida bo'ladi.

Masalan: Sinf o'quvchilari 4-5 kichik guruhlariga birlashtiriladi. Har bir guruh uchun "galereyalar" belgilanadi. Nar bir guruh o'z galereyasi oldida turadi, har bir guruhga o'zlari uchun belgilangan ranglardagi markerlarda yozishlari uqtiriladi. Texnika havfsizligi inobatga olinib, o'quvchilarni sinf xonasida yurishlari uchun sharoit yaratiladi, soat strelkasi bo'yicha yurish tavsiyasi beriladi.

Ona tili darslarida "Son-so'z turkumi" mavzusiga oid so'zlar toping. Guruhlar yozishga kirishadilar, qarsak, musiqa yoki qo'ng'iroqcha tovushini eshitgach, joylar almashiladi, har bir guruh yuqoridagi javoblarni o'qib takrorlamasdan o'zlarining





javoblarini yozib boradilar, o‘z galereyalariga kelgach, o‘z galereyadagi topshiriqlarni tahlil qilib qaysi guruh nechta yozganini sanab chiqadilar, yakunida qaysi guruh ko‘p yozgan bo‘lsa g‘olib sanaladi.

<p>Son-so‘z turkumi</p> <p>Sakkiz, 5 ta.....</p>	<p>Son-so‘z turkumi</p> <p>Beshta, o‘nta, oltinchi, 4,5,7.....</p>	<p>Son-so‘z turkumi</p> <p>34 ta, to‘rtinchi, 25 ta, yuzta, .....</p>	<p>Son-so‘z turkumi</p> <p>Uchunchi, o‘n sakkiz, 85 ta.....</p>
--	--	---	---

Alifbe fanidan: s harfiga oid so‘zlar ( sabzi, savat, saqich...)

Matematika fanidan: 100 ( 250, 1000.....) sonini hosil qiling, geometrik jismlarga misol toping kabi topshiriqlar.

O‘qish savodxonligi fanidan: bir bo‘linga oid asar qahramonlarini nomlarini yozish.

Tabiiy fanlar: hayvon nomlarini yozing.

Tasviriyy san’at fanidan: ranglarni yozing.

Texnologiya fanidan: qog‘ozdan yasaladigan narsa nomlarini yozing.

Musiqqa madaniyati fanidan: musiqa asboblari nomlarini yozing.

## Kritik fikrlashga yo‘naltiruvchi “Debat” metodi

“Debat” (fransuzcha “debattere” so‘zidan olingan bo‘lib, “debats” “bahslashmoq”) texnologiyasi yig‘ilish, majlis yoki mashg‘ulotlarda biror-bir mavzu yuzasidan ishtirokchilar o‘rtasida o‘zaro bahs uyushtirish, ularning fikr almashishlarini ta’minlashga xizmat qiladi.

Bu usulning maqsadi o‘zaro bahs-munozara asosida mukammal yechim variantlarini yuzaga chiqarishdir. Sinf ikki guruhga birlashtirilib, 1-guruh mavzuning ijobiy jihatlarini, 2-guruh o‘ziga xos kamchiliklarni aytishlari lozim bo‘ladi. Masalan: “Qish” mavzusida 1-guruh qishning fazilatlarini qisqacha aytib o‘tadilar, 2-guruh esa ularga o‘z nuqtayi nazarlarini himoya qilgan holda ularga qarshi uchta savol bilan murojaat qiladilar:

1. Qishda sovg‘otasizmi?
2. Sirpanchiqda yiqilsa inson qanday holatga tushadi?

### 3. Qishda ko'pchilik gripp kasaligi bilan kasallanadimi?

Javoblar beriladi imkon darajasida o'z nuqtayi nazarlarini himoya qilgan holda javob berishlari kerak bo'ladi.

2-guruh qishning salbiy oqibatlari haqida o'z kichik ma'ruzalarini qiladilar.

1-guruh savollari quyidagicha berilishi mumkin:

1. Yangi yil bayramida sovg'a olishni ho'xlaysizmi?
2. Qishqi ta'tilda maza qilib dam olasizmi?
3. Qorbo'ron o'ynab mazza qilasizmi?

2-guruh ham o'z vaziyatlarini himoya qilgan holda javob beradilar. Bu metod asosida bolalarda tahlil qila olish, vaziyatlardan chiqib keta olish imkoniyatlari yuzaga keladi. Shu bilan bir qatorda nafaqat kritik fikrlash balki, kreativ fikrlash, kollaboratsiya jarayoni kommunikativlik jarayoni ham mujassam holatda yuzaga keladi.

#### **Kreativ fikrlashga oid "Ijodiy mehnat" metodi ustida ishlash**

Ijodiy mehnat - rasm chizish, andozalash, qo'shiq, tarixlar, chizgilar yozish va o'yinlar o'ylab topishni mujassam etadi.

IJODIY MEHNAT- Bir mavzuga ko'ra turli yo'nalishlarda ijod qilish:

- Kichik hikoya, ma'lumotlar;
- She'r, qo'shiq;
- Topishmoq, maqol;
- Plastilindan yasash;
- Applikasiya;
- Rasm chizish;
- Rolli o'yin;
- Masala tuzish kabilar.

Masalan, "Vaqt o'lchov birliklari" mavzusini o'tishda guruhlar yuqoridagi topshiriqlardan birini tanlab oladilar, masalan: 1-guruhga rolli o'yin, 2-guruhga rasm chizish, 3-guruhga rolli o'yin, 4-guruhga she'r, qo'shiqlar ijro etish vazifasi beriladi. Guruhlar taqdimoti birlashtirilib, umumiy xulosa chiqariladi.


#### **Kommunikativlikka oid interfaol metod namunasi: "Internet" metodi**



Har bir guruhga bir-biriga bogʻlangan turli yoki bir xil, 2 yoki 3 xildagi tasmlar (arqon) beriladi. Bir mavzu asosida matn, masala, maʼlumotlar, qoidalar chiqarish vazifalari beriladi. Tasmlar bir-birlariga uzatilib, goʻyoki “internet”dagi soʻzlashuv vaziyati hosil qilinadi.

Kichik guruh aylana shaklida tasma (arqon) yoki tasmani ushlab turadilar. Bir mavzu yuzasidan matn yaratish vazifasi beriladi: Navroʻz- bahor bayrami.

Guruhning bir aʼzosi matnni boshlab berib, boshqa bir aʼzosi bilan arqon almashadi, bu ishtirokchi ham matnni mazmunan davom ettirib, boshqa ishtirokchi bilan arqonni almashadi, oxirgi ishtirokchi matnni yakunlaydidi. Qaysi guruh chiroyli matn yaratsa, gʻolib sanaladi.



Yangi innovatsion yondashuv natijasini oʻquvchining dunyoqarashi, fikrlashi oʻsishida koʻrish mumkin. XXI asr oʻquvchisi portretida XXI asr koʻnikmalari boʻlishi kerak. Innovatsion yondashuvni qoʻllashdan asosiy maqsad ham shu. Qolaversa, taʼlimning asosiy maqsadi – oʻquvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qoʻllay olishga oʻrgatishdan iborat.

Xulosa qilib aytish mumkinki, keltirilgan misollardan koʻrinib turibdiki, oʻquvchilarning 4K modeli asosida zamonaviy koʻnikmalarni shakllantirishda interfaol usullardan foydalanish asosida yanada ularni ijodiy ishlash, mustaqil fikrlash va oʻz qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatlarini koʻrishimiz mumkin boʻladi

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Xalq taʼlimi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.





2. “Boshlang‘ich sinflarda o‘qitishning zamonaviy metodikasi” dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo‘llanmasi. Toshkent – 2023.
3. Ishmuhamedov R.J, Yuldashev M.A, “Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar” “Nihol” nashryoti, -T.2013 y.
4. D.D.Baynazarova, M.E.Toirova Ona tili Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinf uchun darslik. –Toshkent: “Novda Edutainment” nashriyoti, 2023.
5. M.E.Toirova. O‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinf uchun darslik. –Toshkent: “Novda Edutainment” nashriyoti, 2023.
6. I.V.Repyova. Matematika. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinf uchun darslik. – Toshkent: “Novda Edutainment” nashriyoti, 2023.
7. Y.V.Malikova. Tabiiy fanlar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: “Novda Edutainment” nashriyoti, 2023.